Quyida Abdulla Qahhor hikoyalarida iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar va ularning ma'nolarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, Dodxoning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi (2-bet dahshat). Ushbu gapda berilgan dodxoh so'zi da'vogar ; odillik va quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1.- esk. kt. Adolat talab etuvchi, odillik istovchi , da'vogar. 2. – tar. Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluchi va uning javobini arizachilarga yetkazuvchi lavozimli kishi. 3. – tar.Qo'qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor. 4. – tar. O'tmishda Farg'ona vodiysi va Toshkentda mingboshi va boshqa ba'zi amaldorlarni ulug'lash uchun ishlatiladigan so'z. Quyidagi gaplarda ham qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar ishtirok etgan gaplarni ko'rishimiz mumkin:

Unsin uyiga kirdi, paranji chimmatini yopindi, qumg'onga suv to'ldirib, choynakka choy soldi-yu jo'nadi. (3-bet dahshat) Bu keltirilgan gapda paranji so'zi Shayxlarning ham o'zi, ham yengi keng ustki kiyimi, etn. Ko'pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko'rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to'n shaklidagi, soxta yengli yoping'ich . Qumg'on so'zi esa choy qaynatish uchun ko'pincha misdan yasaladigan, ichi qalay bilan oqartirilgan, ko'zacha shaklidagi dastali va qopqoqli idish; katta choydosh.

:uyezd hokimi “akangizni mingboshi qilaman” , deb uch ming yigirma yeti so'm pulini yeb, saylovda degrezlik Islomiddin degan jallobni saylagan ekan (192 – bet Yillar (anor)) . Ushbu gapdagi Uezd – qad.r. yezd – yo'l; ko'cha yurish. Esk. Chor Rossiyasida va sobiq SSSRda : - 1929 – yilgacha gubernator tarkibidagi ma'muriy-hududiy bo'linma hisoblangan. Mingboshi so'zi esa 1. Daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi. 2. Qo'shin boshlig'i kabi tushinchalarni bildiradi.

Shu vajdan Qutbiddinov suhbatning boshlanishida jinday tashvishmand bo'lganidanmi, bu safar mavzu shaharning kelajagi fanning jimib ketgani emas, bola tarbiyasi bo'lib qodi (82-bet O'jar (anor)). Vaj so'zi yuz, chehra; tomon; sabab; asos 1 Biror narsa va hodisani keltirib chiqaruvchi asos; sabab 2. Xizmat haqqi, badal. Yuqoridagi misolda vaj so'zi sabab ma'nosida kelyabdi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Baxtiyor Mengliyev “ Hozirgi o'zbek tili” “Taffakur bo'stoni” nashriyoti Toshkent – 2018
2. R.Sayfullayeva “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent - 2010
3. Abdulla Qahhor “Anor” qissa va hikoyalar G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2012
4. Abdulla Qahhor “Yillar” hikoyasi (anor kitobi ichida)
5. Abdulla Qahhor “O'jar” hikoyasi
6. Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyasi

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING MEDIA COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

**Abdusalomova Khadija**

Tashkent State Pedagogical University majoring in  
Engineering and Design Theory 1st year magistrate

***Abstract:** Clarification of the theoretical and methodological aspects of the development of media competence indicators in future teachers based on the analysis of philosophical, pedagogical and psychological, technical and methodical literature and the strategic requirements of educational informatization is the basis of this article.*

***Key words:** Media competence, information, methodology, indicator, didactics, strategy, pedagogy, scientific innovation, modeling, module, creativity.*

It is necessary to organize media competence as a study of a pedagogical phenomenon, that is, to determine its essence, properties, signs, content, to create a pedagogical model that allows the development of media competence in the process of professional training of future vocational education teachers in modern higher education institutions.

It is known that without studying the genesis of the phenomenon, its essence cannot be understood. Based on this, before developing the basic aspects of the problem of developing media competence in future professional education teachers and making proposals for its solution, we set out to study the history of the issue under investigation.

Comprehensive development of business, covering all sectors of the economy, has become the main trend of the beginning of the 21st century in our country. Every year, the need for competent future vocational education teachers who have all the

knowledge, qualifications and skills necessary for a modern manager is increasing. A large number of higher education institutions, including pedagogical higher education institutions, considered it necessary to train students in this field and included this direction in their curricula.

But due to the unabated need for teachers of future vocational education at all levels, high demands are placed on the knowledge and skills of future specialists. A modern competent future teacher of vocational education should have comprehensive knowledge, skills and abilities of his profession at the level of world standards, know pedagogical and information and communication technologies, be able to work actively with the media environment, z must be able to achieve the goals set before him, that is, in a word, he must be a media competent person.

In recent years, in the world, with the development of the theory of motivation and the evaluation of the professionalism of the teacher of the future vocational education and the stimulation of his activity; researches related to the development of potential are being carried out. However, nothing is blindly copied during this period, each source is carefully studied, and the content is creatively explored based on the actual conditions of meditation. The expansion of the global information space, including with the help of modern media, has created an opportunity for specialists to increase the level of media competence, independent education and independent development.

However, higher education institutions cannot train specialists without media education. This fact has created the conditions for the implementation of a large number of diverse studies carried out in recent years, in which the problems of developing media competence in future professionals, from future teachers to soldiers and engineers, have been studied. During this period, media competence of future vocational education teachers also became a subject of research due to the social order of the society for the knowledge and competence of specialists at all levels.

Summing up from the above, we can say that the issue of media competence development in future vocational education teachers is characterized by mass and



comprehensive study. Also, we emphasize that one of the priority tasks of our research is to search for and systematize the aspects related to the process of successful development of media competence, to raise this problem to the number of urgent issues of the development of general professional competence. During this period, against the background of existing social needs and economic conditions, the level and content of the educational subject "Educational Technology" will be consistently and comprehensively improved. This makes the problem of developing media competence one of the most urgent and important.

The problem we are studying is connected with the main changes taking place in the higher education system in our country, with the complete recognition of the competent approach as the basis of collective education, as well as with the fact that from year to year specialists of various fields, including the future profession we found out that it is characterized by the increasing number and quality of research on the development of media competence in education teachers.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasion texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni //“Xalq so‘zi” gaz. – T.: 2002. (06.02.2002 y.). – B.1.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 24 b.
5. Abdullaeva Q.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituv-chilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari.–T.: 2006. –182 b

## YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY VA MA’NAVIY ASOSLARI

**Nurmatov Botirjon Xusanovich**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar tayyorlash markazi  
taktika sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

**Nutfiyev Ikrom Izzatullayevich**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar  
tayyorlash markazi taktika sikli o‘qituvchisi, podpolkovnik

*«Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni  
ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur».*

**Shavkat Mirziyoev**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,  
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatida yoshlarning ijtimoiy faolligini yuksaltirishning ustuvor yo‘nalishlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Vatanparvarlik tuyg‘usini yoshlar ongiga singdirishning ta’limiy asoslari yanada takomillashtirilishi zarur, bunday yuksak murakkab masalani, eng avvalo, ijtimoiy gumanitar fanlarning o‘zaro aloqasi, ularda vatanparvarlik, izchillik tamoyili talqini va ushbu fanlarni ana shu yo‘nalishda o‘qitish orqali erishiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Vatan, harbiy, jasorat, Vatanni sevish, harbiy vatanparvarlik, ma’naviyat, axloq, tarbiya, ma’naviy-axloqiy meros, fidoiylik, burch, mas’uliyat, qahramonlik, matonat, sadoqat, g‘urur.*

*Аннотация:* В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются приоритеты повышения социальной активности молодежи в гражданском обществе. Необходимо дальнейшее совершенствование образовательных основ воспитания чувства патриотизма в сознании молодежи. Такая сложнейшая задача может быть решена, прежде всего, путем взаимодействия социальных и гуманитарных наук, интерпретации принципа патриотизм и последовательность в них, и преподавание этих наук в этом направлении.

*Ключевые слова:* Родина, воинство, мужество, любовь к Родине, военный патриотизм, духовность, нравственность, воспитание, духовно-нравственное наследие, самоотверженность, долг, ответственность, героизм, сила духа, верность, гордость.

*Abstract:* This article analyzes the priorities for increasing the social activity of young people in civil society from a socio-philosophical point of view. It is necessary to further improve the educational foundations for cultivating a sense of patriotism in the minds of young people. Such a complex task can be solved, first of all, through the interaction of the social and human sciences, the interpretation of the principle of patriotism and consistency in them, and the teaching of these sciences in this direction.

*Key words:* Motherland, military, courage, love for the Motherland, military patriotism, spirituality, morality, education, spiritual and moral heritage, dedication, duty, responsibility, heroism, fortitude, loyalty, pride.

## KIRISH

Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda o'tmishda yaratilgan ma'naviy meros va harbiy sarkardalar jasoratidan bahramand etishni talab etmoqda. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayoti qadriyatlarisiz tasavvur etib

bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Binobarin, xalqimizning buyuk milliy ma'naviyati va axloqiy asoslari va uning tarixini chuqur o'rganish, anglash orqali Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni yagona maqsad sari muqaddas O'zbekistonimiz uchun xizmat qilishimiz zarur ekanligini taqozo etmoqda. Bugungi kunda vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifamiz bu mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlashdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliy qahramonlarimizning jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish ularda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitida inson qalbi va ongiga rahna soluvchi tahdidlar ortayotganligi tashvishli holdir. Ayniqsa, tashqi ta'sirlar, tazyiqlar, tajovuzlar ortishi, axborot xurujlarining avj olishi dunyo jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda. Hozirda dunyo miqyosida tahlakali vaziyatni ortib borayotgani bizdan doimo hushyor, ogoh va sergak bo'lishni talab etmoqda. Tarixdan ma'lumki, aksariyat tanazzulgayuz tutgan davlatlarda jamiyatning parchalanishida g'oyaviy parokandaliklar asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu o'rinda, bugungi kun talabi barcha voqea hodisalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan yetarli darajada xabardor bo'lishni taqozo etmoqda.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik, yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni vatanga mehr qo'yish, Vatanni himoya qilish, uning xavfsizligi hamda yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy vatanparvarlik o'zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo'yishni talab etadi. Muhim jihati shundaki, undagi hissiyotlar tor vatanparvarlik doirasiga sig'maydi, undan

“chetga chiqadi”. Harbiy vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo‘ladi.

2023 yil 29 iyul sanasida “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 267-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda 2023-2027-yillarda yoshlarni Harbiy-Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo‘nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish asosiy maqsad qilib olindi. . Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash «Vatan – ulug‘, burch–muqaddas!» konseptual g‘oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat‘iy fikr va e‘tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi. Mazkur g‘oyaning asosiy mazmun va mohiyati o‘sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish, milliy ruh va g‘ururni yuksaltirish, bebaho boylik — tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarni shakllantirish, zarurat bo‘lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iborat.

## **NATIJAR VA MUHOKAMA**

Harbiy vatanparvarlik - umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas qismi bo‘lib, u O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash sharoitida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois harbiy vatanparvarlikning metodologik asoslari, ilmiy-nazariy xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq va tahlil qilish har doim dolzarb axloqiy masala bo‘lib qolaveradi. Yoshlarni milliy g‘oya ruhida

tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o'ri va ahamiyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga ham bog'liq. Zero, bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bevosita Qurolli Kuchlar tizimi, harbiy soha, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilsa-da, oila, mahalla va ta'lim muassasasi uni bilvosita amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi va bu borada har bir fuqaro milliy-ma'naviy va axloqiy jihatlarni yaxshi bilishi lozim.

Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug'lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog'liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Ta'kidlash zarurki, o'zbek xalqining milliy-ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg'u "muhabbat", "ishonch", "sadoqat" kabi ma'naviy va axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o'z mavqeini yo'qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir.

Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o'ri va ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Bu borada, harbiy vatanparvarlikning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish bilan bog'liq ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tadbirlar kursantlar va bo'lajak yosh ofitserlarni haqiqiy vatanparvar qilib tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda yosh avlodning Vatan va uning kelajagi haqidagi o'y-fikrlari, vatanparvarlik tuyg'usini his qilishi, avvalo:

- shaxsiy manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan bog'lashda;

- milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'usining mustahkamligida;
- Vatan ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatishida;
- yurt tinchligini asrash, himoya qilish uchun kurashda yaqqol namoyon bo'ladi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, vatanparvarlik faqat insonga xos xususiyat bo'lib, ma'no-mazmuni jihatidan ma'naviy fazilatlar turkumiga kiradi.

Uning axloqiy asosini muhabbat – burch - fidoiylik o'rtasidagi o'zaro dialektik bog'langan ijtimoiy-ma'naviy faoliyat tashkil etadi. Har qanday davlat o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim–tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, ona Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi.//2024.–12yanvar.

<https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/12/armed-forces/>.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.06.2023 yildagi 267-son.// <https://lex.uz/uz/docs/6518238#6519244>.

3. Военный энциклопедический словарь.– Москва: Эксмо-Пресс,2007.- 1024 с.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – № 27. –2017.



**ХОТИН-ҚИЗЛАР МЕҲНАТ САМАРАДОРЛИГИНИ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК  
АСОСЛАРИ**

**Сирожиддинова Фируза Хосилбековна**

Андижон давлат педагогика институти

Ф.ф.д.(PhD)

***Аннотация:** Жамият интеллектуал салоҳиятини юксалтириши, маънавий-ахлоқий даражасини оширишига ҳисса қўиши ҳар бир оиланинг бурчидир. Оилада хотин-қизларнинг роли катта. Эндигина улгайиб келаётган ёш авлод, аввало, оилада тарбия топади. Хотин - қизларимизнинг қандай интеллектуал салоҳиятга эга эканлиги, бугунги ва эртанги кунимизни белгилаб беради. Жамият ривожланиши учун олиб борилаётган ислоҳотлар негизида ҳам айнан ана шундай мафкура яширинган.*

***Калит сўзлар:** жамият, меҳнат, интеллектуал, салоҳият, ахлоқий даража, ёш авлод, хотин-қизлар, оила, ислоҳот, маънавий даража*

***Аннотация:** долг каждой семье - повысить интеллектуальный потенциал общества, способствовать повышению духовно-нравственного уровня. Роль женщины в семье велика. Молодое поколение, которое только подрастает, воспитывается, прежде всего, в семье. То, каким интеллектуальным потенциалом обладают наши женщины, определяет сегодняшний и завтрашний день. Именно такая идеология также скрывается на основе реформ, проводимых для развития общества.*

***Ключевые слова:** общество, труд, интеллектуальный, потенциал, нравственный уровень, молодое поколение, Женщины, Семья, реформа, духовный уровень*

**Annotation:** *it is the duty of each family to raise the intellectual potential of society, to contribute to increasing the spiritual and moral level. The role of women in the family is great. The younger generation, who is just growing up, is brought up, first of all, in the family. What intellectual potential our women have determines today and tomorrow. It is such an ideology that is also hidden on the basis of the reforms carried out for the development of society.*

**Keywords:** *society, labor, intellectual, potential, moral level, younger generation, Women, Family, reform, spiritual level*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 декабрдаги ПФ-5597- сонли фармонида асосан ушбу соҳадаги ишларнинг ҳолати хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, улар билан мақсадли ишларни ташкил этиш, оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни мустаҳкамлаш ва соғломлаштиришнинг самарали механизмларини яратишга тўсқинлик қилаётган бир қатор тизимли муаммо ва камчиликлар мавжудлигидан далолат бераётгани ва уларни бажариш юзасидан қатор ишлар амалга ошириляётгани бежизга эмас<sup>1</sup>.

Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш мақсадида, шунингдек, 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгилаб берилган вазифаларни инобатга олган ҳолда: Ўзбекистон Хотин-қизлар кўмитаси фаолиятининг устувор йўналишлари этиб белгиланди:

биринчидан, хотин-қизларни қўллаб-қувватлашга доир давлат сиёсатининг самарали амалга оширилишини таъминлаш, уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларнинг мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги роли ва фаоллигини ошириш;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 декабрдаги ПФ-5597- сонли фармони

иккинчидан, хотин-қизларнинг муаммоларини ўз вақтида аниқлаш, ёрдамга муҳтож бўлган ва оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларнинг, шу жумладан, ногиронлиги бўлган аёлларнинг манзилли рўйхатларини тузиш, уларга ижтимоий-ҳуқуқий, психологик ва моддий ёрдам кўрсатиш;

учинчидан, хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш, меҳнат шaroитларини яхшилаш, хотин-қизларни, айниқса, қишлоқ жойлардаги ёш қизларни оилавий ва хусусий тадбиркорликка, ҳунармандчиликка кенг жалб этиш масалаларида ҳар томонлама манзилли қўллаб-қувватлаш;

тўртинчидан, хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, биринчи навбатда, ҳуқуқбузарликка мойиллиги бўлганлар билан яқка тартибда иш олиб бориш ҳамда жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган хотин-қизларнинг ижтимоий реабилитацияси ва мослашиши бўйича чора-тадбирларни амалга оширишда давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари билан яқин ҳамкорликни таъминлаш каби вазифаларнинг юклатилиши жамиятда аёлларнинг ролини юқори эканлигини кўрсатади.

Шу боис Президентимиз томонидан илгари сурилган 5 та муҳим ташаббус муҳим аҳамият касб этади. Шулардан, бешинчи ташаббус хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутгани жамиятда хотин қизларни ролини ўз-ўзидан очиб беради. Бугун дунё ҳамжамияти билан ҳамнафас яшар эканмиз, хотин-қизларни ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб қувватлаш, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, аёлларни касбий, жисмоний, маънавий ва интеллектуал савиясини юксалтириш умуммиллий сиёсатнинг ажралмас қисмига айланганини кўриб борамиз. Шу боисдан хотинқизларнинг барча соҳаларда фаоллигини ошириш мақсадида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда. “Соғлом авлод учун” жамғармаси, “Тадбиркор аёл” уюшмаси, “Қизил ярим ой” жамияти, “Оила” илмий-амалий марказларининг ташкил этилиши барчаси аёлларимизга жамиятимиз томонидан берилган имкониятлардан биридир.

Жамият интеллектуал салоҳиятини юксалтириш, маънавий-ахлоқий даражасини оширишга ҳисса қўшиш ҳар бир оиланинг бурчидир. Оилада хотин-қизларнинг роли катта. Эндигина улғайиб келаётган ёш авлод, аввало, оилада тарбия топади. Хотин - қизларимизнинг қандай интеллектуал салоҳиятга эга эканлиги, бугунги ва эртанги кунимизни белгилаб беради. Жамият ривожланиши учун олиб борилаётган ислоҳотлар негизида ҳам айнан ана шундай мафкура яширинган. Тўғри ҳали ечилмай қолмай масалалар талайгина бироқ, ҳар бир шахс ўз устида тинимсиз ишлашни давом этаркан экан муаммолар ўз ечимини топиб боради. Ҳукуматимиз ташаббуси билан олиб борилаётган ишлар таъсирчанлиги ошириш яна янги бир нарсани кашф этишга ўрин қолдирмайди. Дунёда жуда фойдали, айрим ҳолларда эса бугунги кунда тенги топилмётган нарсалар айнан аёл ихтирочилар томонидан яратилаётганини тан олишимиз керак. Мисол қилиб айтганда, бугун Wi-Fi деб танилиб кетган сирли алоқа воситасини 1941 йилда Хеди Ламар исмли аёл патентлаган, 1845 йилда Сара Метер томонидан сувости кемасидан бошқа объектларни кузатиш ва шу объектгача бўлган масофани аниқлаш мосламасини биринчи бўлиб патентлаган, Джозефина Кокрейн 1886 йилда идиш товоқ ювиш машинасини ўйлаб топиши билан миллионлаб уй бекаларининг меҳнати анча енгиллашган, йўлларда шовқинни пасайтиришда 1971 йилда Эл Долорес Джонс ўз ихтироси билан ёрдам берган<sup>1</sup>. Иқтидорли, интеллектуал салоҳиятга эга хотин-қизларимизни тегишли соҳаларда хорижий мамлакатлар олий ўқув юртлари, илмий марказ ва саноат корхоналарига стажировкаларга боришлари ҳамда халқаро анжуманлар, семинарлар, ярмаркалар кўргазмаларда қатнашишлари юртимизнинг инновацион фаолиятини янада юксалтиришда ўзининг муносиб ҳиссасини қўшади<sup>2</sup>.

Аёлларнинг уй - рўзғор, бола - чақа билан боғлиқ бўлган юмишларидан, фарзандлар тарбиясидан, ўз оиласидан узоқлашмаган ҳолда оила даромадини кўпайтиришда ўз улушини қўшиши, уйда туриб ҳам меҳнат билан банд

---

<sup>1</sup> [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)

<sup>2</sup> [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

бўйлишини таъминлаш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Айниқса, хотин-қизларимиз тадбиркорлигини қўллаб – қувватлаш, имтиёзли кредитларининг жорий этилиши берилгани имкониятлар дебочасидир.

### АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 декабрдаги ПФ-5597- сонли фармони
2. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
3. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARINI ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

**Sobirova Dilafruz Abdulhay qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti v.b.dotsenti (PhD)

**Abdullayeva Madina Baxtiyorjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish tadqiq etilgan.

*Kalit so‘zlar:* boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish savodxonligi, zamonaviy ta‘lim, matn ustida ishlash, nutq o‘stirish, pedagogik texnologiyalar.

Mustaqil Respublikamizda fuqarolik jamiyati qaror topayotgan hozirgi tarixiy davrda ta‘lim-tarbiya sohasiga bo‘lgan talab va uni rivojlantirish shart-sharoitlari tubdan o‘zgardi. Xususan, Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi<sup>1</sup>ning qabul qilinishi buning yaqqol dalilidir. Ta‘lim-tarbiya sohasiga doir qabul qilingan boshqa qaror va dasturlar ham ta‘lim-tarbiya jarayoni, uning moddiy -texnik bazasi va mazmunini isloh qilish Respublikamiz siyosatidagi ustuvor masala ekanligini amalda tasdiqladi, desak yanglishmaymiz.

Boshlang‘ich ta‘lim uzviy ta‘limning asosiy bo‘g‘ilaridan sanaladi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o‘zini-o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslari egallab olinishini ta‘minlashga da‘vat etilgan. Shu nuqtai nazardan boshlang‘ich sinflarda

---

<sup>1</sup> Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi. -Toshkent, 2020.

o'quvchilarning umummadaniy va ahloqiy ko'nikmalari hamda dastlabki savodxonlik malakalarini shakllantirishga katta e'tibor beriladi.

Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda undagi o'qish darslari alohida o'rin tutadi. Zero, bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda ma'naviy barkamol insonga xos fazilatlarni shakllantirish o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, o'qish darslarida o'quvchilarning tez, ongli, to'g'ri, ifodali o'qish malakalari ham shakllantiriladi, nutq o'stirishga alohida e'tibor qaratiladi.

«O'qish savodxonligi» darsligida turli mavzudagi va turli janrdagi asarlar o'rin olgan bo'lib, ularning barchasi bir maqsadga- kichik yoshdagi o'quvchilarga har tomonlama ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi. Hozirgi zamon ta'lim va tarbiyaning yangicha mazmuni: o'quvchilarning yanada ongini oshirish; o'quv-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish; o'qitish metodlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko'tarish; bolalarning bilim qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish; berilgan bilim va ko'nikmalarning ongli, puxta o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarning mustaqil aqliy mehnat ko'nikmalarini o'stira borish kabi vazifalarni ko'zda tutadi.

Zamonaviy ta'limni jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri-bu ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishda innovatsion texnologiyalar muhim sanaladi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish masalasi dolzarflik kasb etadi. Shuni hisobga olgan holda, o'qish darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ayrim texnologiyalarga to'xtalishni joiz deb bildik.

Boshlang'ich sinflarda o'qiladigan asaralar o'quvchilarning borliq, tabiat, jamiyat, insonlarning o'zaro munosabatlari va ma'naviy qiyofalari, ona-Vatan haqidagi tushuncha-tasavvurlarini kengaytirish orqali ularda bilim va ko'nikmalarni



har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoqarashlarini kengaytirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun o'qish darslarida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga, mantiqiy fikrlashga turtki beradigan metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shunday metodlardan biri «Tezkor savol-javob» metodidir. Bu metoddan asar g'oyaviy mazmunini ochishda foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuningdek, asarni idrok qilishda, uning mazmunini o'zlashtirishda «Aqliy hujum» dan foydalanish esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashlariga hamda ularning tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Matn asosida o'quvchilar nutqini o'stirish uchun «Zanjir» o'yini tashkil qilish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchilarga faqat insoniy fazilatlarni aks ettiruvchi so'zlar zanjirini hosil qilish topshiriladi. «Zanjir» quyidagicha bo'lishi mumkin: Yaxshilik-kamtar-rostgo'ylik h.k. Shu o'rinda o'quvchilarga har bir so'z ma'nosi bilan bog'liq maqollar aytirish ham ular nutqini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, «Yaxshilik – yaxshilik yerda qolmas», «Kamtar – kamtarga kamol», Rostgo'y – boshingga qilich kelsa ham rost so'zla" kabi.

O'qish darslarida o'qituvchi «Nima uchun?» metodidan ham foydalanishi mumkin. Bu metod o'quvchilarda mantiqiy izchillikda fikrlash malakasini hosil qiliadi.

«Oynai jahon» o'yinini qo'llash ham samarador bo'ladi. Bu o'yinda o'quvchilar hikoya qahramonlari qanday bo'lsa, uning ta'rifini oynai jahonda ko'ringaniday tasvirlaydilar.

Ko'rinadiki, o'qish darslarida qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar ta'lim oluvchilar( o'quvchi)larga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarning o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda, o'quv materiallarini o'zlashtirishiga yordam beradi. Bunda o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishish ta'minlanadi.

Darsda yangi pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llash o'quv mashg'uloti maqsadiga erishishni kafolatlaydi. Ta'kidlash joizki, ayrim

hollarda bir sharoitda ijobiy natija bergan texnologiya boshqa bir sharoitda kutilgan samarani bermasligi ham mumkin.

Zero, muallim qanday pedagogik texnologiyani qo'llamasin, bunda o'rnatiladigan munosabatning to'g'ri yo'naltirilgani katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki hech qanday texnologiya jonli, hissiyotlarga to'la insoniy munosabatlarning o'rmini bosa olmaydi.

Ayniqsa, «O'qish savodxonligi» darslarida bu jarayon o'zgacha ma'no kasb etadi. «O'qish savodxonligi» darslari boshqa fanlardan farqli ravishda inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkuri, ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim vositalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya shaxsga ta'sir ko'rsatish san'ati ma'nosini anglatar ekan, adabiyotning vazifalaridan biri ham shu. Shu bois ham, o'quvchi-darsning ijodkori. U zinhor tayyor texnologiyalarning oddiy ijrochisiga aylanib qolmasligi, aksincha, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'z yo'lini izlab topishi lozim.

Shunday holatlar ham bo'ladiki, dars jarayonida ko'plab o'rinli-o'rinsiz usul va metodlar qo'llaniladi. Natijada, asar badiiyati, jozibasiga xira tortib qoladi, o'quvchiga ta'sir kuchi kamayadi. «O'qish savodxonligi» darslarida so'z sehriga tayanish lozim, foydalanadigan usullar umumiy maqsadga omuxta bo'lib, singib ketsagina uni qo'llash yaxshi samara berishi mumkin.

O'qituvchining ramzlar, ishoralar, sha'ma, qochirmalar, istioralardan o'rinli foydalana olishi, nutq ohangiga, so'z jozibasiga e'tibor berishi va ifodali o'qish san'atini egallaganligi, mashg'ulotlarni ta'sirchan, qiziqarli tarzda tashkil etishi katta mahoratni talab etadi.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni amaliy faoliyatga yo'naltirishi, obrazga kirishiga tayyorlashi va savollar qo'ya olishi, o'z fikrini erkin ifodalashi, bahs-munozara yuritish madaniyatini egallashlariga sharoit yaratishi kerak.

O'qituvchi o'quvchini o'zi bilan teng ishtirokchi sifatida ko'rishi, fikrlarini hurmat qilishi, eshitishi, ular bilan xisoblashi zarur.

Ifodali o'qishning ahamiyati katta. Mashg'ulotlarda badiiy asardan parcha o'qituvchi tomonidan shunday o'qilishi kerakki, o'quvchilar hayratga tushsinlar, zero, bolani hayratlantirmasdan turib, hech narsaga o'rgatib bo'lmaydi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning yana biri mashg'ulotlarni muammoli vaziyatda yaratish orqali tashkil etishdir. Muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy fikrlash salohiyatlarini o'stirishdan tashqari, ularni yangi bilim va malakalarni egakllashga yo'naltiradi. Muammoli ta'lim muammoli vaziyat yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu, o'qituvchida katta mehnat talab etadi, chunki dasturdagi xar qaysi o'quv material ham muammoli vaziyat hosil qilish uchun asos bo'la olmasligi mumkin.

O'quvchilar qo'yilgan muammo bilan o'zlari o'zlashtirgan bilimlarini qiyoslab, mantiqdan mushohada yuritishadi. Qahramonlarning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash uchun asar matniga murojaat qilishadi.

Bunday muammoli vaziyat o'quvchini asar matniga, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrga diqqat-e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. Bunday bahs-munozaralar o'quvchilarni asar matnini to'liq va chuqur o'rganishga yo'naltiradi. Muammoli ta'limning boshqa o'qitish usullaridan farqi shundaki, unda o'quvchi tafakkurida aqliy qo'zg'alishlar uyg'otiladi. O'quvchi muammoni hal etish uchun bilimi yetishmayotganini anglaydi. Bunday vaziyat o'quvchini bilim olishga, izlanishga, o'sha haqiqatning tagiga yetish uchun faol harakatga undaydi.

So'nggi paytlarda ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning interfaol usuli keng qo'llanilmoqda. Xulosa qilib aytganda, «O'qish savodxonligi» darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. K.Qosimova va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: 2009.
2. L.V. Golish, D.M. Fayzullaeva. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashr., 2011.
3. N.Saidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Moliya”, 2003. 6- bet.
4. T.G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Tafakkur”, 2011. 6- bet.

**TABLE OF CONTENTS**

Sr. No.	Paper/ Author
1	Olimjonova, N. S. qizi . (2024). SPEKTRNING KO‘ZGA KO‘RINADIGAN SOHASIDA KTF KRISTALLI YUTILISH SPEKTRLARI VA FOTOLYUMINESENSIYASI. SCHOLAR, 2(5), 4–8. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690814">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690814</a>
2	Садикова, Э. В. (2024). СИНОНИМИЯ ПОСЛОВИЦ С КОМПОНЕНТАМИ-АНТРОПОНИМАМИ НА МАТЕРИАЛЕ СБОРНИКА РУССКИХ ПОСЛОВИЦ В.ДАЛЯ. В SCHOLAR (Т. 2, Выпуск 5, сс. 9–13). Zenodo. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690845">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690845</a>
3	Gulmurodov, F. O. o'g'li . (2024). O'ZBEKNING O'Z SHOIRI. SCHOLAR, 2(5), 14–17. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690866">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690866</a>
4	Жалилов, М. Х., & Абдурашидов, А. А. (2024). ФИЗИОТЕРАПИЯ В АКУШЕРСТВЕ И ГИНЕКОЛОГИИ. SCHOLAR, 2(5), 18–27. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690881">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690881</a>
5	Ismatova, M. S., & Sa'dullayeva, S. M. qizi . (2024). ARTERIAL GIPERTENZIYA BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA O'NG QORINCHANING FIZIOLOGIK HOLATI. SCHOLAR, 2(5), 28–32. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690903">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690903</a>
6	Abduraxmonov, D. (2024). MODERNIZM SAN'ATI HAMDA UNING O'ZBEKISTONDA ILK BOR QO'LLANILISHI. SCHOLAR, 2(5), 33–37. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690917">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690917</a>
7	Moloshov, Y. (2024). YOSHLARDA BIZNES G'OYALARNI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH. SCHOLAR, 2(5), 38–42. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690929">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690929</a>
8	Закирова, Д. А. (2024). КИНЕМАТИКА БИПЛАНЕТАРНОГО МЕХАНИЗМА. SCHOLAR, 2(5), 43–49. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.10690937">https://doi.org/10.5281/zenodo.10690937</a>

9

Закирова, Д. А. (2024). ИСПЫТАТЕЛЬНОЕ УСТРОЙСТВО НАПРЯЖЕНИЕ ПРИ КРУЧЕНИЕ. SCHOLAR, 2(5), 50–55.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10690952>

10

Боймуродов, Б. П. ўғли. (2024). НОРМА ИЖОДКОРЛИГИ ЖАРАЁНИДА ФУҚАРОЛАР ИШТИРОКИНИНГ ЮРИДИК ТАБИАТИ. SCHOLAR, 2(5), 56–63. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10690966>

11

Rakhimjonova, N. R. (2024). FIGHT AGAINST CORRUPTION IN SOME FOREIGN COUNTRIES AND THE ROLE OF THE "COMPLIANCE-CONTROL" SYSTEM IN IT. SCHOLAR, 2(5), 64–69.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10690973>

12

Bekmuradova, X. K., & Ergashev, I. T. (2024). HIMOYALANGAN GRUNTDA BODRING DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA TURLI EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI. SCHOLAR, 2(5), 70–76.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10690988>

13

Ergashev, I. T., Bekmuradova, X. K., & Toshkentbaeva, F. I. (2024). X – VIRUSINING KARTOSHKA MAHSULDORLIGIGA TAЪSIRI. SCHOLAR, 2(5), 77–83. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691003>

14

Омонов, А. Ж. (2024). ТАРИҚНИ ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ВА МЕЪЁРЛАРИНИ ЕР УСТИ БИОМАССАСИ ҲАМДА ИЛДИЗ ТИЗИМИГА ТАЪСИРИ. SCHOLAR, 2(5), 84–88.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10691016>

15

Muminova, Z. K., Ismoilov, V. I., & Otayarova, G. U. (2024). RESURSTEJAMKOR AGROTEXNOLOGIYALARNI EROZIYAGA UCHRAGAN BO'Z TUPROQLAR UNUMDORLIGI VA KUZGI BUG'DOY HOSILDORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIRI. SCHOLAR, 2(5), 89–94.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10691034>

16

Otayarova, G. U., Xalilov, N., & Ravshanova, N. A. (2024). LOVIYANING O'SISHI, O'SISH JADALLIGI VA O'RTACHA SUTKALIK O'SISHIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRILOVIYANING O'SISHI, O'SISH JADALLIGI VA O'RTACHA SUTKALIK O'SISHIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI. SCHOLAR, 2(5), 95–100.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10691052>

17

Исмоилов, В. И., Мавлонов, Б. Т., & Турсунов, Ш. (2024). КУЗГИ ЖАВДАРНИНГ ҚИШЛАБ ЧИҚИШ ДАРАЖСИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИ ҲАМДА МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. SCHOLAR, 2(5), 101–105. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691073>

18

Toyirova, D. S. (2024). КИЧИК МАКТАВ YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO'NIKMALARINI TARBIYALASHNING MAZMUNI. SCHOLAR, 2(5), 106–114. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691094>

19

Safarov, N. G. (2024). IXTISOSLASHTIRILGAN МАКТАВ-INTERNATLARIDA MUSIQA TARBIYASINING АНАМИЯТИ. SCHOLAR, 2(5), 115–120. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691104>

20

Алиева, З. Р. (2024). ТЕОРИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В КОНТЕКСТЕ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ. SCHOLAR, 2(5), 121–126. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691139>

21

Чхетиани, Т. Л. (2024). КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД ПРИ ИЗУЧЕНИИ ОБРАЗОВ КРЕСТЬЯНСКИХ ДЕТЕЙ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ 19 ВЕКА НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ. SCHOLAR, 2(5), 127–133. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691152>

22

Муродова, М. М. (2024). ВРЕМЕННЫЕ КООРДИНАТЫ В ПЬЕСЕ Н. САДУР «ЧУДНАЯ БАБА». SCHOLAR, 2(5), 134–139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691175>

23

Умарова, М. С. (2024). ЯЗЫКОВАЯ НОРМА И ФОРМИРОВАНИЕ СТИЛЕЙ ПРОИЗНОШЕНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. SCHOLAR, 2(5), 140–144. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691187>

24

Qo'shshayeva, M. F. qizi . (2024). YOSHLARNI AXBOROT HURUJLARIDAN NIHOYA QILISHDA MILLIY G'OYANING АНАМИЯТИ. SCHOLAR, 2(5), 145–149. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691205>

25

Amirova, M. E. (2024). МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA INKULYIZIV KORREKSION TA'LIM TIZIMI. SCHOLAR, 2(5), 150–161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691219>



26

Mustafoev, Z. M. o'gli ., & Azamatova, D. B. qizi . (2024). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE KIDNEY IN POLYPHARMACY WITH ANTI-INFLAMMATORY DRUGS. SCHOLAR, 2(5), 162–168. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691799>

27

Xojimuratova, M. A. qizi . (2024). THE ROLE OF THE INOCULATION METHOD IN THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE. SCHOLAR, 2(5), 169–175. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691865>

28

Xaytboyeva, S. (2024). ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA QO'LLANISH DOIRASI CHEGARALANGAN SO'ZLAR. SCHOLAR, 2(5), 176–178. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691914>

29

Abdusalomova, K. (2024). METHODOLOGY FOR DEVELOPING MEDIA COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. SCHOLAR, 2(5), 179–181. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691934>

30

Nurmatov, B. X., & Nutfiyev, I. I. (2024). YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY VA MA'NAVIY ASOSLARI. SCHOLAR, 2(5), 182–187. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691955>

31

Сирожиддинова, Ф. Х. (2024). ХОТИН-ҚИЗЛАР МЕҲНАТ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. SCHOLAR, 2(5), 188–192. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691977>

32

Sobirova, D. A. qizi ., & Abdullayeva, M. B. qizi . (2024). BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH. SCHOLAR, 2(5), 193–198. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10691996>